



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 07 | pp. 242-247 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI, OMILLARI VA FUNKSIYALARI



Ruziyev Shuxrat Sharifboyevich

Buxoro davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalari rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning asosiy funksiyalari o'rGANildi. O'zbekistonning turli mintaqalarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish sur'atlari va istiqbollari tahlil qilindi. Shuningdek, mintaqaviy xususiyatlar va omillarni hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish yo'naliishlari taklif etildi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy omillar, sanoat klasterlari, innovatsion rivojlanish, davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, mintaqaviy xususiyatlar, raqobatbardoshlik, xizmat ko'rsatish korxonalari, ijtimoiy korxonalar, barqaror rivojlanish, hududiy strategiyalar, xizmatlar sektori, xalqaro tajriba.

Абстрактный. В данной статье изучены региональные особенности развития предприятий сферы услуг, факторы, влияющие на них и их основные функции. Проанализированы темпы развития и перспективы сферы услуг в различных регионах Узбекистана. Также были предложены направления разработки эффективных стратегий развития предприятий сферы услуг с учетом региональных особенностей и факторов.

Ключевые слова: сфера услуг, региональное развитие, экономические факторы, промышленные кластеры, инновационное развитие, государственная политика, социально-экономические условия, региональные особенности, конкурентоспособность, предприятия сферы услуг, социальные предприятия, устойчивое развитие, региональные стратегии, сфера услуг, международный опыт.

Abstract. This article studies the regional peculiarities of the development of service enterprises, factors affecting them and their main functions. The rates of development and prospects of the sphere of services in different regions of Uzbekistan have been analyzed. Also the directions of development of effective strategies of development of enterprises of sphere of services taking into account regional features and factors have been offered.

Keywords: service sector, regional development, economic factors, industrial clusters, innovative development, state policy, socio-economic conditions, regional peculiarities, competitiveness, service enterprises, social enterprises, sustainable development, regional strategies, service sector, international experience.

Kirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'yndaydi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi nafaqat shahar markazlarida, balki qishloq va chekka hududlarda ham iqtisodiy o'sish va barqarorlikka hissa qo'shmoqda. Mintaqaviy xususiyatlar, xizmat ko'rsatish korxonalari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning funksiyalari xizmatlar sohasi taraqqiyotining asosiy yo'naliшlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning strategik muhim yo'naliшlaridan biri sifatida ko'rilmoxda. Bu jarayonda mintaqaviy xususiyatlar va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni to'g'ri baholash, xizmat ko'rsatish korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mahalliy olimlarimizdan O'zbekiston olimlari xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishini milliy va mintaqaviy kontekstda ko'rib chiqmoqdalar. A.Ahmedov (2020) o'z tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasining mintaqaviy rivojlanishidagi asosiy omillarni, jumladan, iqtisodiy infratuzilmaning holati, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va davlat siyosatining ta'sirini tahlil qilgan. U xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarni mintaqaviy iqtisodiyotni rag'batlantirishning asosiy mexanizmi sifatida ko'rsatadi. M.Xolbo'taev (2022) xizmat ko'rsatish korxonalarining mintaqaviy xususiyatlari haqida tadqiqot olib borib, turli hududlarning o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari xizmatlarning tarkibi va sifatiga ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. U, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlashining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining nazariy asoslari bo'yicha xorijiy olimlar o'z tadqiqotlarida bir qator muhim jihatlarni ta'kidlaydilar. Porter (1990) xizmatlar sohasining mintaqaviy rivojlanishiga iqtisodiy klasterlar yaratish orqali erishish mumkinligini aytadi. Unga ko'ra, klasterlashish xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Donghyun Kim va Up Lim (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa ijtimoiy korxonalar roliga qaratilgan bo'lib, ular xizmat ko'rsatish korxonalarining mintaqaviy rivojlanishga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kiritish orqali ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Ular mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda ijtimoiy korxonalar va jamoat tashkilotlarining hamkorligini muhim deb bilishadi. Yuqoridagi nazariy qarashlardan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishda mintaqaviy xususiyatlar va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur o'rganish, davlat siyosati va iqtisodiy klasterlar orqali bu sohani qo'llab-quvvatlash zarurligi kelib chiqadi. Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqishda qimmatli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Bugungi kunda jahondagi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ilgarigi bosqichlardagi taraqqiyotdan jiddiy tarzda farq qiladi. Iqtisodiy barqarorlikka erishishning zamonaviy talqini jahon iqtisodiyotida va sohalar va tarmoqlarning rivojlanishi bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlariga bog'liq holda yangicha konseptual yondashuvlarni talab qilmoqda.

Bizning fikrimizcha, bu holat jahon mamlakatlari tadrijiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida (servis iqtisodiyotida) samarali xo'jalik faoliyatini tashkil etish industrial (sanoat) faoliyatga qaraganda kengroq darajada tadqiq etilganki, bunda avvalambor ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish jamiyatda aholining turmush darajasi va turmush sifatini oshirish, mehnat jarayonini intellektuallashish darajasini oshirish hamda tejamkor iqtisodiyotni yuzaga keltirishga yo'naltirilganligi bilan ifodalanadi.

Shu bilan birga, N.G.Fed'koning fikriga qo'shilgan holda servis iqtisodiyotining rivojlanishi bilan yuzaga keladigan samarali faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagilarni xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin¹:

1. Servis iqtisodiyotida xo'jalik sub'ektlari birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, ya'ni iste'molchilarining xususiy (maxsus) talablarini to'liqroq qondirishga e'tibor beradilar. Industrial iqtisodiyotda esa asosiy diqqat e'tibor ko'proq tovar-mahsulotlarni maksimal darajada ishlab chiqarishga yo'naltiriladi.

2. Servis iqtisodiyotida natijadorlik (foydalilik) tushunchasi tovarlardan foydalanish tavsifi bilan bir xil bo'lib, bunda moddiy ne'matlar va xizmatlar tizimining qanchalik darajada takomillashganligini aniqlaydi. Industrial iqtisodiyotda esa faqat tovar-mahsulotining moddiy tomoni e'tiborga olinadi.

3. Servis iqtisodiyotida «sifat» mezoni asosida ishlab chiqaruvchining iste'molchini maksimal ehtiyojini qondirishga bo'lgan munosabatini doimo nazorat qilish va belgilash qobiliyati nazarda tutiladi. Industrial iqtisodiyotda esa "sifat" mezoni asosida faqat faoliyat yurituvchining "o'z ishini yaxshi bajarish" qobiliyati e'tiborga olinadi.

4. Servis iqtisodiyotida menejment tizimi ham o'zgarib boradi. Uning asosiy xususiyatlari sifatida egiluvchanlik, qarorlar qabul qilishning jadalligi, tashkiliy jihat, erkin harakat qilish va oshkorlik hisoblansa, industrial iqtisodiyotda esa menejment «mexanik» xususiyatga ega, ya'ni tashkiliy tuzilmalarining ierarxik va ularning ortiq darajada tartibga solinishi bilan aniqlanadi.

5. Servis iqtisodiyotida asosiy e'tibor servis tizimi shakllanishining samaradorligiga qaratilsa, industrial iqtisodiyotda esa xomashyonni tayyor mahsulotga aylanishiga asosiy e'tibor qaratiladi.


Ushbu keltirilgan fikr va mulohazalardan xulosa qiladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasida (servis iqtisodiyotida) xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish industrial iqtisodiyotdagi samarali faoliyatga nisbatan jiddiy farq qiladi va u asosan mehnat jarayoning ijtimoiy yo'naltirilganligining o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat xizmatlar bozorida talab va takliy muvofiqligiga erishish, xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, innovasiyalarni joriy etish va raqamli xizmatlar ko'rsatishni rag'batlantirish, aholining barcha qatlamlari uchun xizmatlarni diversifikasiyalash hamda qulaylik va

¹ Фед'ко Н.Г. Основы маркетинга / В.П.Фед'ко, Н.Г.Фед'ко. – Ростов н/Д: Феникс, 2002. – С. 23-24.

iste'molchilarning kutish vaqtini qisqartirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Bizningcha, ushbu chora-tadbirlarni realizasiya qilinishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirlishi zarur:



Mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun xizmat ko'rsatish sohasini samarali boshqarish nafaqat moliyaviy-texnik tadbirlarni, balki ijtimoiy va tashkiliy jihatlarni ham o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini barqaror va bir xilda rivojlantirish, mintaqaga aholisining barcha qatlamlari farovonligini ta'minlash uchun doimiy takomillashtirish va innovasiyalarga intilish muhim ahamiyatga ega.

Mintaqada iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muhim o'ringa ega. Bu nafaqat yalpi hududiy mahsulotni (YaHM) oshirish, balki yangi ish o'rinalarini yaratish, aholi turmush darajasini oshirish va infratuzilmani yaxshilashga ham xizmat qilmoqda. Quyida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali mintaqaga iqtisodiyotining istiqbolli yo'nalishlari keltirilgan:

1. YaHM hajmini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash:

- ◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi mintaqada ishlab chiqarish hajmi va bozorda taklifning oshishiga olib keladi;

- ◎ xizmat ko'rsatish hajmining oshishi mintaqaga daromadlarining oshishi va natijada yalpi hududiy mahsulotning o'sishini ta'minlaydi;

- ◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi mehnat taqsimotini nisbatan yuqori darajaga ko'tarilishi va inson kapitalini rivojlanishini ta'minlaydi;

- ◎ xizmatlar iste'molining ortishi iqtisodiyotning transport, savdo va ishlab chiqarish kabi boshqa tarmoqlari faoliyatini ham rag'batlantiradi.

2. Xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinalarini yaratish:

- ◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi turli sohalarda, masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, turizm, axborot texnologiyalari va boshqalarda yangi ish o'rinalining yaratilishiga olib keladi;

◎ xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi turli mutaxassislarni talab qiladi, bu esa ishsizlikni kamaytirish va ish bilan bandlik darajasini oshirishga yordam beradi;

◎ xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlarning diversifikasiyalashishi an'anaviy xizmat ko'rsatish bilan birga, zamonaviy (raqamli texnologiyalarga asoslangan) xizmatlar ko'rsatishni kengayishi orqali zamonaviy ish o'rinalarini paydo qiladi.

3. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi orqali turmush sifatini yaxshilash:

◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, yuqori saviyada ta'lif olish, madaniy tadbirlar o'tkazish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish kabi keng ko'lamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi;

◎ ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish aholi turmush darajasini va farovonligini oshirishga olib keladi;

◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi aholining turli xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish orqali turmush sifatini yaxshilashga sharoit yaratadi.

4. Innovatsiyalar va raqamlashtirishni rag'batlantirish:

◎ xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi;

◎ xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish ko'rsatilayotgan xizmatlarning qulayligi va samaradorligini oshiradi, shuningdek, hududning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Investisiyalarni jalb qilish:

◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi mintaqani sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qiladi, chunki u tadbirkorlik faoliyati uchun qulay muhit yaratadi va foya olish salohiyatini oshiradi;

◎ xizmat ko'rsatish sohasiga sarmoya kiritish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa investorlarni jalb qilib, investision jozibadorlikni oshiradi.

6. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash:

◎ xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanishi mintqaqaniga iqtisodiyotini diversifikasiya qilish va uning ayrim tarmoqlarga qaramligini kamaytirishga yordam beradi;

◎ turli xil xizmatlar bozor sharoitlarining o'zgarishi sharoitida mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi.

7. Hududning raqobatbardoshligini oshirish:

◎ xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi sifatlari xizmatlar ko'rsatish, sayyoohlar va investorlarni jalb etish orqali hududning raqobatbardoshligini oshiradi;

◎ xizmatlar sifati va ularning mavjudligini oshirish mintaqaning raqobatchilardan ajralib turishiga va ko'proq mijozlar va sarmoyalarni jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish mintqaqaniga iqtisodiyotini rivojlantirish, yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga hissa qo'shish, yangi ish o'rinalari yaratish, aholi turmush sifatini yaxshilash, innovasiyalar va raqamlashtirishni rag'batlantirish, investisiyalarni jalb etish va mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, istiqbolda bunday natijalarga erishish uchun ma'lum bir

hududning xususiyatlari va ehtiyojlariga muvofiq xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun samarali boshqaruv va strategik rejalahtirish zarur.

Mintaqa iqtisodiyotda belgilangan maqsadlar asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik sub'ektlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sir darajalarini baholash va umumlashtirishni zarurat etadi. Ushbu holat korxonalar faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi parametrlardan foydalanish, ularni mintaqaning o'z va turdosh tarmoqlari hamda mintaqa iqtisodiyoti ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashni nazarda tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Федъко Н.Г. Основы маркетинга / В.П.Федъко, Н.Г.Федъко. – Ростов н/Д: Феникс, 2002. – С. 23-24.
2. Абрамов С.С. Оценка социально-экономической эффективности сферы услуг региона / С.С. Абрамов.– Научно-технические ведомости СПбГПУ: Экономические науки, 2011. – №3. – С.41-44.– Режим доступа. – <https://cyberleninka.ru/>;
3. Кириллова Т.В. Применение матричных моделей для проведения анализа эффективности хозяйственной предприятий сферы услуг /Т.В. Кириллова // Материалы Всероссийской научно-практической конф.: Развитие сферы услуг: стратегии, инновации, компетенции», Новгород, 26 марта 2019 г., г. Н.Новгород - Нижний Новгород: Изд-во ННГУ, 2019. – С. 394-400;
4. Пардаев М.Қ., Истроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.;
5. Салихова С.Ф., Мутраков О.С., Губайдуллин А.М. Показатели экономической эффективности деятельности предприятий сферы услуг / С.Ф. Салихова, О.С. Мутраков, А.М. Губайдуллин. – Вестник УГНТУ: Наука, образование, экономика. Серия экономика. № 3 (17), 2016.– С. 42-48.
6. Зайнашева З.Г., Мутраков О.С. Особенности предпринимательской деятельности в сфере услуг / З.Г. Зайнашева, О.С. Мутраков. – Азимут научных исследований: экономика и управление. 2018. Т. 7. № 1(22). – С. 197-201.
7. Balashova R. Improved territorial policy, as the direction of increase of efficiency of sphere of services (Совершенствование территориальной политики, как направление повышения эффективности сферы услуг) // European science review, «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. Vienna. №1-2. 2016, – pp. 201-203.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

